



Analysis of cultural-specific items encountered in the English translation of "Khorezmnoma"

Shokhista MATKARIMOVA¹

Urgench State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received April 2025
Received in revised form
10 April 2025
Accepted 2 May 2025
Available online
25 June 2025

Keywords:

reality,
toponyms,
anthroponyms,
transliteration,
copying,
transcription.

ABSTRACT

This article presents an analysis of culture-specific terms (realia) encountered during the translation of O. Masharipov's "Khorezmnoma" from Uzbek into English. Additionally, this article explores various types of realia and provides information about them.

2181-3701/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss6/S-pp247-252>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

"Xorazmnoma" asarining ingliz tiliga tarjimasida uchragan realialar tahlili

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

realiya,
toponimlar,
antroponimlar,
transliteratsiya,
kalkalash,
transkripsiya.

Ushbu maqola O. Masharipovning "Xorazmnoma" asarining o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjimasida jarayonida uchragan realialar tahlilini o'z ichiga oladi. Bundan tashqari bu maqolada realialar turlari va ular haqidagi ma'lumotlar ham yoritib berilgan.

¹ Doctoral Student, Urgench State University.
E-mail: matkarimovashohista076@gmail.com

Анализ реалий, встречающихся в английском переводе произведения «Хорезмнома»

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

действительность,
топонимы,
антропонимы,
транслитерация,
копирование,
транскрипция.

Данная статья включает в себя анализ реалий, встречающихся в процессе перевода произведения О. Машарипова «Хорезмнома» с узбекского языка на английский. Кроме того, в этой статье освещаются виды реалий и информация о них.

Tarjima jarayonida tarjimonga eng katta qiyinchiliklar keltiradigan omillardan biri, asl asarning milliy xususiyatlarini boshqa bir madaniyatga o'tkazishdir. Endi esa biz milliylikning kichik bir ifodasi bo'lgan realiya haqidagi masalani ko'rib chiqamiz. Bolgariyalik tarjimashunos olimlar S. Vlastov va S. Florin realiya atamasini, turli madaniyat va hududga xos bo'lgan narsalar, tushunchalar, voqealar, geografik xususiyatlar, ijtimoiy va tarixiy yirik elementlar kabi xalqlar, millatlar yoki qabilalarning turmush tarzini ifodalovchi xalq tilidagi so'zlar va ifodalar deya ta'riflaydilar. Bunday so'zlar, shuningdek, geografiya, etnografiya, folklor va mifologiya bilan bog'liq bo'lib, tarixiy va ijtimoiy hayotning o'ziga xos xususiyatlarini ifodalaydi. Biz ularni asosan "xos so'zlar" deb ataymiz.

Badiiy asarda xos so'zlar asar muayyan milliy adabiyotga mansub ekanligini va badiiy voqelikning muayyan etnik guruhda sodir bo'layotganini ko'rsatadi. Realiza yoki xos so'zlar ko'pincha tarjimaga mos kelmaydigan ekzotik leksika sifatida ifodalanadi. Bu esa, milliy rangni yoki davrni aks ettirish maqsadida asl so'zlarni tarjima qilmaslik kerak degani emas. Aksincha, agar tarjima asarida asl tilning so'zlari ko'p uchraydigan bo'lsa, bu tarjima sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatib, kitobxonni asar bilan bog'lanishdan chetlatishi yoki asar mazmunini yaxshi anglab yetmasligi mumkin. Tarjimada realizalar ko'p bo'lsa, bu, Rosselsning ta'kidlashicha, o'quvchida xotiraga noxush to'siqlarni keltirib chiqaradi, xuddi tushunarsiz chiziqlar kabi o'sha xotirada qolib ketadi.

Tarjimon milliy adabiy asarni o'z tili va badiiy muhiti bilan uyg'unlashtirishga intilayotganida, asli asar muallifining niyatini boshqa tilda ham aynan ifodalashni maqsad qiladi. Har bir so'z yoki ibora asar matniga shunchaki "qog'ozni qoraytirish" uchun kiritilmaydi, balki ular kitobxonlarda aniq bir his-tuyg'u uyg'otish uchun faol ishlatiladi. Har bir so'zda nafaqat tasviriy iyerogliflar, balki katta hayot nafasini sezish mumkin. Bunday yondashuv tarjimonga katta mas'uliyat yuklaydi, chunki har bir milliy tilda faqat o'sha tilda mavjud bo'lgan o'ziga xos so'zlar bo'lishi mumkin, va ba'zan bu so'zlar boshqa tillarda umuman boshqa ma'no yoki ibora shaklida uchrashi mumkin. Tarjimonning mas'uliyati aynan shunda bu ma'nolarni to'g'ri saralay bilishda.

Misol tariqasida Xorazmnoma asarining o'zbek tilidagi variantidan ingliz tiliga tarjimasida bir nechta geografik, etnografik, folklor, ijtimoiy va tarixiy xususiyatlarga oid xos so'zlarni tarjimasiz qoldirilgan. Shunga qaramay, bu realizalar tarjima matnida begona va moslashmagan narsadek ajralib turmaydi.

Xorazmnoma asarida uchragan realialardan biri bu *pir* degan so'z bo'lib, bu so'z O'zbek tilining izohli lug'atida *diniy mazxab boshlig'i*, *diniy rahbar* ma'nosi sifatida berilgan bo'lib, uni tarjimada teacher deb bermochi bo'linsa, bu so'zning ma'nosi pir

so'zini o'rnini bosa olmaydi. Shuning uchun biz bu so'zni o'quvchiga tushunarli bo'lishi uchun pir deb berib uning ma'nosini esa qavs ichida (a religious leader) deb izoh orqali yoritib ketdik. Jumla quyidagicha berilgan:

Bo'lg'usi Sohibqiron o'zining keyinchalik qo'lga kiritgan zafarlarini piri va ustoz Amir Shayx Mir Shamsutdin nomi bilan bog'lagan edi.

Ingliz tilidagi tarjimasini esa quyidagicha bo'ldi:

The future Sakhibkiran attributed his later victories to his pir (a religious leader) and mentor, Amir Sheikh Mir Shamsutdin.

Xorazmnomaning qahramonlari – Sakhibkiran Amir Temur, Genghis Khan, Jaloliddin Manguberdi, Iskandar Zulkarnay, Yusuf Sufi, Tukhtamish, Bayezid va boshqa antroponimlar, shuningdek Khorezm, Mawarannahr, Syr Darya, Urgench, Khiva, Amu Darya kabi toponimlarni o'zbek tili va madaniyatining ajralmas qismi sifatida ingliz tilida ham o'zgaras holda qoldirdik.

Estetik did va yuqori saviyada bajarilgan tarjima asarini o'qish kitobxon uchun zavq va rohat manbai bo'ladi. Agar bunday asarni o'qiyotganingizda, notanish so'zlar chiqishi haddan oshib ketsa va ular izoh bilan pastki yoki oxirgi qismda berilsa, bu kitobxonni bir muncha bezovta qiladi. Bunda izohlarni davomiy o'qish jarayonida ularni birma-bir topishga to'g'ri kelish, diqqatni chalg'itish, zavqni esa azobga aylantirishi mumkin. Biroq, bunday izohlar faqat zarur bo'lganda, ya'ni o'quvchiga notanish so'zning ma'nosini tushunishga yordam berish uchun qo'llanilishi kerak. Bu kabi tushuntirishlar kiritib, o'quvchining qiziqishini va o'qish tempini saqlab qolishga harakat qilgan jumlamiz ham bir nechta. Bu usul o'quvchining qiziqishini saqlashga yordam beradi, ammo barcha realiyalar uchun bu metodni qo'llash mumkin emas.

Masalan quyidagi jumlada *clan* so'zini o'zbek tilidagi *ulus* so'zini tarjimasini sifatida qo'lladik lekin *ulus* so'zi O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha ta'riflangan: Ulus-1. tar. XI–XII asrlarda mo'g'ullar davlatida ma'lum bir no'yonga (mo'g'ul aslzodasiga) qarashli yerlarda unga tobe holda ko'chmanchilik bilan hayot kechiruvchi katta-kichik oilalar, urug'lar guruhi

2. tar. Mo'g'ullar istilosi davrida bosib olingan hududlardan Chingizxon farzandlariga bo'lib berilgan mulklar, keyinchalik mustaqil davlatlarning nomi.

Chig'atoy ulusi. Jo'ji ulusi.

Xorazmnoma kitobidagi *ulus* so'zi ishtirok etgan bu gapni misol qiladigan bo'lsak, u quyidagicha berilgan:

Bu davrda, ya'ni XIV asrning 60-yillarida bir vaqtlar metindek intizomi va kuch-qudrati bilan tanilgan mo'g'ul davlatida Chingizxon avlodlari o'rtasida toju-taxt, davlat va mol-dunyo uchun ichki kurash shu darajada kuchayib ketgan ediki, bu holat mo'g'ul davlatining bir bo'lagi bo'lgan Chig'atoy ulusini xam chetlab o'tmadi.

Biz yuqoridagi jumlaning quyidagicha tarjima qildik:

In the Mongol state which was very famous with its strong discipline, in the 14th century in the 1960s, the internal struggle for the throne, and wealth among the descendants of Genghis Khan in the Mongol state intensified, such situation influenced to Chigatoei clan also, which was one of the parts of the Mongol state.

Bu jumla keltirib o'tgan *clan* so'zimiz o'zbek tiliga *ulus* so'ziga juda yaqin ya'ni *urug'*, *urug' jamoasi* kabi tarjima qilinganligi bois bu so'zni inglizcha variantini berishga qaror qildik.

Agar milliy koloritni ifodalovchi soʻzlarni tarjima qilmasdan qoldirsak, matn juda milliydashib ketadi, va kitobxon asl mazmunni yaxshi tushuna olmasligi mumkin. Shuning uchun, bu kabi soʻzlar kontekst ichida joylashishi, ularning maʼnosini tushunishga yordam beradigan tarzda ishlatilishi lozim.

Lekin biz tarjima qilgan quyidagi jumlada esa biz realiani oʻz xolicha qoldirishni avfzal koʻrdik:

Taragʻay oʻzi eʼtiqod qilgan piri Mir Kulolga oʻgʻlini olib borib, unga pir boʻlishga qoʻl oldiradi. Rivoyat qilishlaricha, Temur Mir Kulol xuzuriga borganida u boʻlgʻusi Sohibqironga yettita non va bir qism holvani berib: “Mana shu yettita nonni yegin. Shunda sen yerning yetti iqlimiga hokim boʻlasan deydi”. “Men nonlarni ehtiyot qildim, bu menga Alloh ato etgan barakatning boshlanishi edi deydi Temur”.

Bu jumlada bizning milliy shirinliklarimizdan biri hisoblanmish *holva* soʻzi ishlatilgan va biz uni kalkalash yoʻli bilan tarjima qildik. Chunki inglizlarda aynan bizni un, shakar va yogʻdan, baʼzan kunjut, magʻiz qoʻshib tayyorlanadigan shirinligimizning oʻzi yoʻq. Tarjima quyidagicha shaklga ega boʻldi:

Taragay brought his son to his pir Mir Kulol, whom he believed. According to the legend, when Temur went to see Mir Kulol, he gave seven loaves of bread and a piece of kholwa and said, “Here are these seven loaves of bread that you should eat, and then you will rule the seven corners of the earth, he says.” I took care of the bread; it was the beginning of the blessing that Allah gave me, says Temur.”

Shuningdek, tarjima jarayonida har qanday asarda sof realiyalardan tashqari soxta realiyalar ham uchraydi. Ularni tarjima qilish nisbatan osonroq boʻlsa ham, koʻpincha tarjimonlar asl shaklida saqlab qoladilar. Penʼkovskiy, masalan, toʻy, toʻyxona, qamchi, shayton, piyola, aravakash kabi soʻzlarni oʻzgartirmasdan keltirgan. Tarjimon oʻzining izohida shunday deb yozgan: “Oktyabr inqilobidan keyingi yillarda rus tili boshqa qardosh tillardan kirib kelgan soʻzlar hisobiga boyidi. Misol uchun, qishloq, dehqon, boy va boshqa soʻzlar rus tiliga kirib kelgan va ayrimlari badiiy adabiyot yoki gazeta orqali tilimizga kirgan.” Shuning uchun, tarjimon baʼzan oʻzining soʻzlarni tanlashda rus tiliga keyinchalik kirib kelishi mumkin boʻlgan elementlarni ishlatishga harakat qilgan.

Tarjima jarayonida muqobili yoʻq soʻzlarni tarjima qilishning bir necha metodologik yondoshuvlari mavjud. Ularning eng sodda va tezkor usuli – soʻzlarni transliteratsiya qilishdir. Bu jarayonda soʻzlarning talaffuzini saqlab qolish muhim hisoblanadi. Transliteratsiya kishi ismlari, joy nomlari, geografik atamalar, davriy nashrlar, shuningdek, korxona va tashkilotlarning nomlarini oʻz ichiga oladi. Tarjima nazariyasiga koʻra, transliteratsiyaning afzalliklari shundaki, u asl soʻzning talaffuzini aniq aks ettiradi. Masalan, Xorazm soʻzi ingliz tiliga Khuwarzam yoki “Khorezm” shaklida tarjima qilinishi mumkin; bu erda ikkinchi usul inglizcha talaffuzga yaqinroqdir.

Shuningdek, ayrim ismlar bir necha usulda berilishi mumkin. Masalan, “Jaloluddin Manguberdi” ismini biz tarjimada Jaloliddin Manguberdi tarzida bergan boʻlsak Bekzod Abdirimovning “Sulton Jaloliddin Pokistonda”, tarixiy asarining ingliz tiliga tarjimasida esa “Jaloliddin Mingburnu” va xuddi oʻsha kitobning baʼzi joylarida esa “Jalaluddin Manguberdi” deb tarjima qilib ketilgan. Tarjimon asarning uslubi va janriga eʼtibor berishi zarur, chunki bular tarjimani aniqlik va toʻgʻrilik bilan boyitadi.

Muqobili yoʻq soʻzlarni tarjima qilishda beshta asosiy usulni

1) transliteratsiya, 2) sarlavha osti izohlari, 3) kalkalash, 4) oʻxshash soʻzlar bilan tarjima qilish 5) tasviriy tarjima guruhlari asosida oʻrganishimiz mumkin.

Har bir usulning o'ziga xos kamchiliklari mavjud bo'lsa-da, ularning oqilona qo'llanishi tarjimaning sifatini oshirishga va ma'lumotni to'liqroq saqlab qolishga yordam beradi. Tarjima usulini tanlashda matnning uslubi va janr xususiyatlarini hisobga olish zarur, shuningdek, har bir tilning so'z birikmalarini hosil qilish imkoniyatlariga alohida e'tibor berilishi kerak.

Xos so'zlar ma'lum bir xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy birliklar hisoblanadi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar har qanday asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi. Demak, har qanday badiiy-g'oyaviy barkamol asar o'zida birday ham baynalmilallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalmilallik asarning mazmuni va g'oyasida, milliylik esa uning shaklida namoyon bo'ladi. Badiiy asarning shakli qator jixatlari bilan birga uning tilini, xususan lug'at tarkibini o'z ichiga oladi: asarning milliy xususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi. Baynalmilallik bilan bir qatorda milliylik xususiyatini ham o'zida mujassam etgan tilning lug'at tarkibi o'zi mansub bo'lgan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an'alarini, geografik tasavvurini, ma'naviyati va dunyoqarashini, diniy e'tiqodini, axloqiy me'yorlarini, tafakkur yo'nalishini moddiy aks ettiradi. Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarning ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o'ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu xol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash barobarida, ularning tarjimada o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi.

Asliyatning o'ziga xosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy xususiyati bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g'oyaviy zaminini asliy monand tiklash asarning milliy bo'yog'ini qayta yaratish bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham tarjimada milliy xususiyatni tiklash masalasi keyingi paytlarda tarjimonlarning ham, tarjimashunoslarning ham e'tiborini o'ziga borgan sari ko'proq tortib kelmoqda. Chunki tarjimaviy nuqsonlarning ko'pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

Kitobimizda bir necha barobar uchratganimiz Oltin O'rda joy nomini tarjima qilishda ham o'zini transliteratsiya usulida qoldirdik. O'rda so'zi O'zbek tilining izohli lug'atida quyidagicha yoritib berilgan:

1. Turkiy va mo'g'ul xalqlarida hukmdor, xon qarorgohi, qal'a.

Yusufbek hoji boshliq yer-u ko'kka sig'magan muzaffar xalq o'rda tevaragini qurshab tushdi. A. Qodiriy, O'tgan kunlar

Mullajon yoshligida Qo'qon xoni o'rdasi oldidagi kazarma maydonida otda mashq qilayotgan soldatlarni ko'rib, soldat bo'lishni orzu qilardi. A. Rahmat, Ellik bir bahodir

2. Qo'shin qarorgohi, lashkargoh.

Harbiy harakatlar vaqtida o'rda atrofi xandaq bilan o'ralgan.

Biz uchratgan jumalardan birisini misol tariqasida oladigan bo'lsak:

The Oltin Orda language was formed under the strong influence of Khorezm language.

Zero, tarjima amaliyotida xanuzgacha yo'l qo'yib kelinayotgan xato va kamchiliklarning ko'pchiligi tarjimada milliy xususiyatni tiklash bilan bog'liq bo'lib, bu masala hanuzgacha nazariy jixatdan ham, amaliy xususdan ham qoniqarli darajada hal

qilingan emas. Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda tarjima amaliyotining qanday sinalgan usullari vositasida talqin etish lozimligi haqida yagona fikr uchramaydi. Tarjimaning ijodiy jarayonligi tufayli, bunday fikrning uchrashi ham amri mahol. Biroq bayon etilgan ilmiy-tanqidiy fikr-muloxazalar tarjimonning muayyan xolatda qanday yo'l tutishi lozimligi haqidagi tasavvurini boyitadi, uning amalda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan turli-tuman tasodifiy tugunlarni yechishiga ko'maklashadi, unda amaliy mushkulotlarni moxirona yengish malakasini hosil qiladi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tarjima jarayonida vazifaviy moslikni ta'minlash, asliyatdagi ifoda vositalarining hajmi, vazni, sifati va vazifasini qayta tiklashni talab qiladi. Bu nafaqat tarjima qilinayotgan matnni keng kitobxonlarga tushunarli qilib taqdim etish imkoniyatini yaratadi, balki tarjima tilida mazmunning to'liq va aniq aks ettirilishini ham ta'minlaydi. Xos so'zlarni boshqa tilga o'g'irishda, ularning ma'lum kontekstdagi axboriy va uslubiy vazifalarini aniqlash, so'ngra tarjima tilida shularga mos keladigan, lekin shu bilan birga o'sha tilning me'yorlariga mos lisoniy vositalarni tanlash zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Влахов С., Флорин С. Непереводимое в переводе. Сб. «Мастерство перевода». М., 1970, с. 438.
2. Росселс Вл. Перевод и национальное своеобразие подлинника. Сб, «Вопросы художественного перевода». М., 1955, с. 169.
3. Salomov F. Til va tarjima. Toshkent, 1966, 165-bet.
4. K. Jo'rayev "Tarjima san'ati" 49- bet.
5. "O'zbek tilining izohli lug'ati" Izoh.uz